

Poytaxtim – Toshkent. O'lkam

Normurod Narzullayev



Rebusni yeching. O'ylab
ko'ring, uning javobi mavzu
nomi bilan qanday bog'langan?



O'qing.

O'lka ko'pdir dunyoda,
Bir-biridan ziyoda.
O'rtoqjonlar, do'stlarim!
Tinglang, yurak so'zlarim!

Bordir shunday bir diyor,
Bag'ri gulzor, hur* diyor!
Undan olur kun otash,
Mehri mehrimga tutash.

Bir guliston, deydilar,
O'zbekiston, deydilar.
Toshkent – uning poytaxti,
Do'stlikdan kulgan baxti.

Erklik, birlik shahrida
Tinchlik, do'stlik shahrida
Yozib sizga dasturxon,
Etgum do'stlarni mehmon.



hur – erkin, ozod, mustaqil


1



1. Poytaxt so'zining ma'nosini tushuntiring.
2. Nima uchun Toshkentni **do'stlik shahri** deb ataydilar?
3. Qaysi davlatlarning poytaxtlarini bilasiz?



Toshkent – Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri. U 2200 yildan ortiq tarixga ega.



O'rta asrlarda Toshkent Buyuk Ipak yo'li-ning muhim savdo markazi bo'lgan. Bu yo'nalish bo'ylab savdogarlar Xitoydan Yevropaga o'z mahsulotlarini tashiganlar. Toshkentda ipak, ziravorlar, oltin va boshqa ko'plab narsalarni sotib olish mumkin edi.

Bugungi kunda Toshkent – chiroyli bog'lar, keng ko'chalar va baland binolar qad rostlagan zamonaviy katta shahar.

Toshkent – nafaqat boy tarixga ega shahar, balki milliy an'analar va madaniyat saqlanib qolgan, shu bilan birga, yangi texnologiya va g'oyalar rivojlanib borayotgan maskan.



AMIR TEMUR
XUDDI AQOLATADUR
CHAI B. CHIPRA A. SHROCH
STRENGTH IN JUSTICE



Berilgan rasmlarga qarang. Toshkentning diqqatga sazovor bo'lgan qaysi joylari sizga tanish? Ular haqida gapirib bering.



Yangi O'zbekiston bog'i




Mustaqillik maydoni



Toshkent kuranti



Mirzo Ulug'bek haykali



Temuriylar tarixi muzeyi



Amir Temur haykali



O'zbek davlat sirki



Toshkent teleminorasi



Hayvonot bog'i



She'rni yod oling.

